



BELBOG'SIZLAR (ACLITELLATA) KENJA TIPI KO'P TUKLILAR (POLCHAETA) SINFINING BIOLOGIK AHAMIYATI

G'ulomova Malika Xaydarali qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda belbog'sizlar kenja tipi ko'p tuklilar sinfining tana tuzilishi, hayot tarzi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: belbog'sizlar, belbog'lilar, metamorfoz, troxofora, akrona, prostomium, pigidium, nereida, parapodiy, halqa.

Аннотация: В данной дипломной работе освещены вопросы строения тела подтипа класса многощетинковых броненосцев.

Abstract: In this thesis, the issues of the body structure of the class of the subtype polychaete class of armadillos are covered.

Halqali chuvalchanglar tanasi ko'p sonli halqalarga bo'lingan. Ularning hazm qilish, ayirish, qon aylanish, nerv, jinsiy sistemalari rivojlangan. Halqali chuvalchanglar tipi belbog'lilar va belbog'sizlar kenja tiplariga bo'linadi. Belbog'sizlar ayrim jinsli, jinsiy dimorfizm oddiy tuzilgan. Tanasida bog'imlari bo'lmaydi. Metamorfoz orqali rivojlanadi. Lichinkasi troxofora deyiladi. Kenja tip ko'p tuklilar sinfini o'z ichiga oladi.

2006-yilda O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshovalar muallifligi ostida chiqqan "Umurtqasizlar zoologiyasi" nomli kitobda ko'p tuklilar sinfi haqida batafsil malumotlar keltirilgan: Halqali chuvalchanglar 9000 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Ko'p tuklilar – tanasida har xil o'simtalar bilan taminlangan hayvonlar. O'troq yashovchi ko'p tuklilarning palpalari juda ko'p sonli shoxlangan yon o'simtalarni hosil qiladi. Bu o'simtalar jabralar deyiladi. Ko'p tuklilar tanasining har bir bo'g'imida bir juftdan soda tuzilgan harakat organlari- parapodiylari bo'ladi. Tanasi cho'ziq silindrsimon yoki biroz yassilashgan. 5mingdan 800tagacha halqalar, yani segmentlardan iborat. Oldingi og'izoldi bo'limi –prostomium va oxirgi anal bo'limi – pigidium deyiladi. Erkin yashovchi vakillari tuban tuzilgan bo'lib, tana halqalari bir xilda tuzilgan gomonom tarzda tuzilgan bo'ladi. O'troq hayot kechiradigan halqalilar tanasining turli qismlari har xil sharoitda bo'lishi tufayli halqalarining tuzilishi ham har xil bo'ladi. Chunonchi, o'troq ko'p tuklilar tanasining oldingi qismida naydan chiqib turadigan juda ko'p o'simtalari bor, tananing keying nay ichidagi qismida esa o'simtalari rivojlanmagan. Ko'p tuklilar bosh bo'limi – peristomium iborat. Peristomium ko'pincha bir necha (2-30 tana bo'gimlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uning qorin tomonida og'iz teshigi joylashgan. Bitta yoki bir nechta tana bo'g'imlarini qo'shib bosh bo'limini hosil qilishi sefalizatsiya deyiladi. Bu jarayon bo'g'imoyoqlilarda ham sodir bo'ladi. Prostomiumda bir juft paypaslagichlar, yani



palplar va bir juft yoki ko'proq tuyg'u organlari – antennalar joylashgan. Prostomiumda har xil miqdorda mo'ylovlar yani sirrilar bo'ladi. Tana bo'g'imlaridagi parapodiyalar juda soda tuzilgan harakatlanish organi bo'lib, halqali chuvalchanglarda birinchi marta paydo bo'ladi. Parapodiyalar muskulli, yassi eshkaksimon tana o'simtalar tananing ikki yonida har bir bo'g'imda bir juftdan joylashgan.

2008-yilda S.Dadayev va O.Mavlonov tahriri ostida chiqqan “Zoologiya” kitobida esa ko'p tuklilar haqida quyidagi malumotlar keltiriladi: Ko'p tukli halqali chuvalchanglar 12000 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ko'p tuklilar suvda erkin suzib yuruvchi yoki suv tubida yopishib o'troq hayot kechiradigan halqali chuvalchanglardir. Ko'p tuklilar baliqlar va boshqa bir qancha hayvonlar uchun oziq bo'ladi. Bu sinfga 8000ga yaqin tur kiradi. Nereida dengizlarda keng tarqalgan ko'p tukli halqali chuvalchang. Tanasining uzunligi 15sm ga yaqin bo'lib, old tomonidagi ikki bo'g'imi boshqa tana bo'g'imlaridan kengroq bo'ladi. Bu bo'g'imlar bosh bo'limini hosil qiladi. Bosh bo'limi esa tanadan aniq ajralib chiqqan maxsus bo'limdan iborat. Bosh bo'limida har xil organlari: paypaslagichlar, ko'zchalar va hidlov chuqurchalari joylashgan. Ko'p tuklilar baliqlar va boshqa bir qancha hayvonlar uchun oziqa hisoblanadi. Nereida tanasi bo'gimining har birida ikki yonida bir juftdan kuraksimon o'simtalar joylashgan. Bu o'simtalar bir necha tutam tuklar bilan taminlangan. Shu tufayli nereida ko'p tukli halqali chuvalchanglar sinfga kiritiladi. Kuraksimon o'simtalar harakatlanish uchun xizmat qiladi. Nereida mayda hayvonlar va suv o'tlat bilan oziqlanadi. Qum chuvalchangi esa dengiz tubidagi qumga ko'milib yashaydi. Chuvalchang tanasi sirtidagi parapodiyalar butunlay o'zgarib, tashqi teri o'simtalarini shaklidagi jabralarni hosil qilgan. Jabralar juda ko'p mayda qon tomirlari – kapilyarlar bilan taminlangan. Jabralar orqali suvda erigan kislorod qonga o'tadi va karbonat angidrid gazi suvga chiqariladi.

Demak tezisda yozilgan malumotlardan ko'rinib turibdiki, yillar o'tgan sayin halqali chuvalchanglarning soni ortib bormoqda. Ko'p tuklilarning tanasini ikki yonida muskulli o'simtalarini to'p-to'p bo'lib joylashgan. Chuvalchanglar o'simtalar yordamida suzadi va suv tubida o'rmalab yuradi. Xulosa qilib aytganda turlar sonining ortishi yoki kamayishi insoniyatga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madina Hikmatuloevna Marupova, Aziz Saidolimovich Kubaev, & Alisher Isomidinovich Khazratov. (2022). THE ESSENTIAL ROLE OF DIAGNOSTIC AND TREATMENT METHODS FOR PATIENTS WITH TEMPOROMANDIBULAR JOINT PAIN DYSFUNCTION SYNDROME. World Bulletin of Public Health, 10, 141-142. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/1015>
2. O. Mavlonov “Zoologiya” 2017-yil.



3. O. Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova “Umurtqasizlar zoologiyasi”2006-yil
4. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>
5. S. Dadayev, O.Mavlonov “Zoologiya” 2008-yil
6. Марупова, М. Х., Кубаев, А. С., & Хазратов, А. И. (2022). УСОВЕРШЕНСТВОВАТЬ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ БОЛЕВОЙ ДИСФУНКЦИИ ВИСОЧНО-НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(5), 164–167. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1632>